

## CHET TILLARINI O'RGATISH JARAYONIDA LEKSIK KO'NIKMALARNING O'RNI.

**I.T.Dehqonov**

*FDU, chet tillari fakulteti nemis  
va fransuz tillari kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Rayimberdiyeva Shahlo Dilshodjon qizi**

*FarDU, chet tillari fakulteti  
fransuz tili yo'nalishi talabasi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada chet tili darslarini o'qitishda kommunikativ hamda leksik o'yinlardan foydalanish usullari, dars samaradorli haqida yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kommunikativ, leksik, kommunikativ-psixologik, metod, vosita, muloqot, individuallashtirish*

Chet tili o'quvchilarning kommunikativ madaniyatlarini rivojlantiruvchi va ularning bilish qobiliyatlarini kengaytiruvchi fan sifatida, uni o'rgatish ta'limning hamma bosqichlarida, ayniqsa boshlang'ich sinflarda ham o'rgatish yaxshi natija beradi.

Leksik o'yinlar ham chet tillarini o'rgatish usullaridan biridir.

Leksik o'yinlar dars jarayonida kommunikativ masalalarni hal qilishlarida chet tillarini o'rganish vositasi bo'lib, kommunikativ metod usullaridan biri sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun leksik o'yinlarning maqsadi dars jarayonida qo'yilgan kommunikativ masala va topshiriqlarni hal qilishda chet tillarida muloqot tashkil qilishdan iborat.

Leksik o'yinlar yuqori ko'rgazmalilik darajasiga ega bo'lib, taqlid qilish va andoza olishdek aniq muloqot jarayonida va nutq vaziyatlarida o'rganilayotgan til materialini faollashtiradi. Leksik o'yinlar til o'rgatish, kommunikativ va ijodiy topshiriqlarni mujassam qilgan o'quv vazifasini o'z ichiga oladi. Til topshiriqlarini hal qilish, dars jarayonida, nutq faoliyatida til materialidan maqsadli foydalanishda nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Leksik topshiriqlar o'yin ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatlarida o'zaro ma'lumot almashuvlarini o'z ichiga oladi.

Leksik o'yinlar asosida farqlash usuli yotadi. Bu usul aniq predmetlarni qiymati va muhimligiga qarab ajratishni nazarda tutadi. O'yin jarayonida, odatda, g'ahlumotlar saralanishi bo'yicha turli nuqtai nazarlar mavjud bo'lganligi



uchun, bahs yuzaga keladi va o'quvchilar juftlikda yoki guruhda o'z fikrlarini asoslab beradilar.

Leksik o'yinlarni quyidagicha olib borish mumkin:

- o'quvchilar mustaqil ishlaydilar, muammo yuzasidan o'z qarorlarini yozib boradilar, keyin juftlikda yoki guruhda o'z qarorlarini muhokama qiladilar;

- o'quvchilar kichik guruhlarda ishlab umumiy qarorga kelishga harakat qiladilar va muhokama chog'ida bu qarorni asoslab beradilar;

- javob variantlari bir xil bo'lmagan o'quvchilar o'z variantlarini himoya qilishlari va ko'proq dalillar keltirishlari uchun bir guruhga yig'ilib ishlaydilar.

Bu usul o'quvchilarda muloqot jarayonida, nutqni faollashtirish va noaniq faktlarni tushuntirishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ma'lumot almashuv bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Bir tomonlama ma'lumot almashuvda bir o'quvchi biror aniq ma'lumotga ega bo'ladi, ikkinchi o'quvchi esa bundan bexabar bo'ladi. Ikkinchi o'quvchining vazifasi birinchi o'quvchi bilan muloqotga kirib, o'zida yo'q ma'lumotga ega bo'lishdir. Ikki tomonlama ma'lumot almashuvda o'quvchilar o'zaro hamkorlikda ish olib borib, umumiy ma'lumotlarni hal qilish uchun o'zida bor ma'lumotlarni birlashtiradilar. Chet tillarini erta o'rgatishni boshlash o'quvchilarni yangi til olamiga kommunikativ-psixologik erta moslashuvlari uchun sharoit yaratadi, chet tillaridan ma'lumot sifatida foydalanib keyinchalik psixologik to'siqlarni yengishlariga yordam beradi, hamda o'quvchilarni, maktab va oila hayotiga oid turli vazifalarda ishtirok etishlari orqali yangi ijtimoiy tajribaga o'rgatib, o'quvchilar til imkoniyatlari va extiyojlarini hisobga olgan holda ularda chet tilida muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bolalarga mos darajada chet tilida samarali muloqot qilish shartlaridan biri – bu leksik ko'nikmalarni to'g'ri shakllantirish bo'lib, chet tili o'qitish mazmunining muhim komponenti hisoblanadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, taxminan boshlang'ich sinflarning o'rtalarida leksika o'qitishning samaradorligini ko'tarish muammosi turadi. Bunga sabab o'quvchilarda aniq leksik zaxira to'planadi, ularga yangi so'zlarni yod olish va esda saqlash tobora qiyinlashib boradi. Leksik birliklarni esidan chiqarish jarayoni boshlanadi. Shu tufayli nutqning sifati buziladi (ham og'zaki ham yozma) chunki u leksik ko'nikmalarni shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari muloqot vaziyatlarining doirasi kengayib borishi, leksik birliklar ko'lamini ortishi va leksik ko'nikmalar barqaror bo'lishini talab qiladi. Leksik ko'nikmalar nutq faoliyatining leksik tomonini tahminlovchi muhim komponentlardan birini o'zida aks ettiradi. Leksik ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat:



- 1) kirish va tushuntirishni o'z ichiga olgan tanishish;
- 2) leksik birliklarni qo'llash mashqlari (birinchi mustahkamlash);
- 3) leksik birliklarni ishlatish (nutq faoliyatiga so'zlarni kiritish).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik rivojlanishining o'ziga hos tomonlari va ularning tahlim olish faoliyatlari, leksik ko'nikmalarning shakllanish jarayoni bilan psixologik omillarni o'rganib metodist olimlar quyidagi xulosalarni chiqaradilar:

- leksik ko'nikmalarni samarali shakllantirish uchun tushunarli va mustahkamlangan materialni taqdim qilish sharti va tartibiga amal qilish talab etiladi;

- har bir o'quvchi bilan o'tilgan leksik materialni bir necha marotaba takrorlashni tahminlash va mashqlar miqdorini oshirish, turli ko'rgazmali vositalardan foydalanish, leksik birliklarni predmetlar harakatlarida tashkil etish;

- leksikani o'rgatishni individuallashtirish, qayta bog'lanishni tezda amalga oshirish, leksik mashqlarni yozma bajarish vaqtida joyida nazorat va to'g'rilash olib borish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. L. Maksimova. Frantsuzskaya leksika. Moskva, 2012.
2. Martine JARDINE, L'accueil des tout-petits, Col. pédagogie pratique, Retz, Paris, 2009.
3. I.T. Dehqonov. Tarjimashunoslikda ekzotizm tushunchasi va uning tafsifi haqida. (2020) Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 12 (12), 250-253
4. Dehqonov Islom Teshaeovich. (2022) FRANSUZ NUTQIY ETIKETIDA PRAGMATIKA VA INTONATSIYA. GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 24.975-978.
5. Dehqonov, I.T. (2022). NUTQIY ETIKET BIRLIKLARI (FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA). IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 222-226.
6. Dehqonov Islom Teshaeovich. (2022). UZBEK AND FRENCH SPEECH ETIQUETTE UNITS. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal 12 (12) 61-64
7. I.T. Dehqonov. Les competences interculturelles, un avantage aupres des recruteurs en etrenger. (2022) Международная научно-практическая конференция 3 (3), 137-139
8. Dehqonov Islom Teshaeovich. (2021) L'interculturel en francais langue etrengere. Международная научно-практическая конференция. 3 (3) 135-137.



9. Ahrorova, R. U. (2021). SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS REPRESENTING "YOUTH" IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES. Theoretical & Applied Science, (7), 122-126.

10. AKHROROVA, R. U. (2021). THE LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD AND THE GENDER ASPECT OF THE CONCEPT OF "AGE" IN FRENCH AND UZBEK. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 585-589.

11. Rahimov Zokir Azimovich, Jurayeva Shalolaxon Xusanboyevna, NUTQNING AHAMIYATI VA UNING TURLARI, Journal of new century innovations, 2023/3/17, Volume 25, Issue 1, Pages 107-112.

12. Шалола Жураева, Мохинур Жўраева, ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКДА ЛУФАТШУНОСЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ, Eurasian Journal of Academic Research, 2022/12/19, Volume 2, Issue 13, Pages 626-630.

13. Jurayeva Sh.X. "CHET TILINI O'QITISHDA ELEKTRON DARSLIK LARNING AHAMIYATI". Eurasian journal of Academic research. Volume 1, Issue 8. 98-100. 2021.

14. Shahlo Akbarova G'aniyevna. Issues of intercultural communication and reception. Ijodkor o'qituvchi. 28-son. 5-aprel. 2023. pages 198-201.

15. Zinatullina A.X., FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA MURAKKAB GAPLARDA ZAMON QO'LLANILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, IQRO JURNALI / 2023, VOL-2 ISSUE-1, E-ISSN : 2181-4341.

16. Zinatullina A. H, The Word Order within the Complex Sentences of French and Uzbek Languages, Universal journal on innovative education, Volume 2 Issue 3, Year 2023, pages 20-21-22.

17. Yorkinoy Nasirdinova. (2022). MODERN FRENCH NATIONAL RESEARCH CENTERS FOR THE STUDY OF CENTRAL ASIA: THE CENTER FOR RESEARCH ON THE IRANIAN WORLD. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 534-538.

18. Yorkinoy Nasirdinova. (2022). CENTRAL ASIA THROUGH THE PRISM OF FRENCH ORIENTAL STUDIES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 1017-1025.

19. S. Tulanov. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (11), 1002-1007, 2022.

20. S. Tulanov. INCONTROLABLE AND TEMPORALITY IN RUSSIAN AND FRENCH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (11), 996-1001, 2022.

